

BUXORODAGI ME'MORIY OBIDALARNING QURILISHIDA SHARQ VA G'ARB AN'ANLARINING UYG'UNLIGI

To'rayev Anvar Ismoilovich

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasi katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14208846>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligi davrida qurilgan, me'moriy echimga ega bo'lgan tarixiy obidalarining qurilish tarixi, uslubi sharq va g'arb qurilish an'alarining uyg'unlashuviga doir ma'lumotlar manbalar orqali yoritilib o'tilgan. Shuningdek, XIX asr oxirida Buxorodan Zapiskiy temir yo'lining o'tkazilishi va bu yerga yirik bank kapitalining kirib kelish munosabati bilan shaharlarda bank binolari, dorixonalar, kasalxonalar, pochta, telefon idorasi, vokzal, shahar markazidagi savdo timi qurilishi bilan bo'liq bo'lgan ma'lumotlar ham maqolada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sitorai Mohi xosa, O'rta Osiyo, me'morchilik, arxitektura, amir, Yevropa shaharsozligi, sakkiz burchakli, Buxoro vohasi, Sirdaryo, oq zal, mang'itlar sulolasi.

HARMONY OF EASTERN AND WESTERN TRADITIONS IN THE CONSTRUCTION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS IN BUKHARA

Abstract. In this article, the construction history and style of historical monuments built during the Bukhara Emirate, with an architectural solution, and information on the combination of eastern and western construction traditions, are highlighted through sources. Also, at the end of the 19th century, in connection with the transfer of the Zapisky railway from Bukhara and the influx of large banking capital, it is connected with the construction of bank buildings, pharmacies, hospitals, post offices, telephone offices, railway stations, and shopping centers in the city center.

The informants are also described in the article.

Key words: Sitorai Mohi Khosa, Central Asia, architecture, architecture, emir, European urbanism, octagonal, Bukhara oasis, Syrdarya, white hall, Mangit dynasty.

ГАРМОНИЯ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ТРАДИЦИЙ ПРИ СТРОИТЕЛЬСТВЕ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ В БУХАРЕ

Аннотация. В данной статье через источники освещены история и стиль исторических памятников, построенных во времена Бухарского эмирата, с архитектурным решением, а также сведения о сочетании восточных и западных строительных традиций. Также в конце XIX века, в связи с переводом Записской железной дороги из Бухары и притоком крупного банковского капитала, это связано со строительством банковских зданий, аптек, больниц, почтовых отделений, телефонных

станций, железных дорог. станции и торговые центры в центре города. Информаторы также описаны в статье.

Ключевые слова: Ситорай Мохи Хоса, Средняя Азия, архитектура, зодчество, эмир, европейский урбанизм, восьмиугольник, Бухарский оазис, Сырдарья, белый зал, династия Мангит.

KIRISH

XIX asr oxiri XX asr boshlarida nafaqat Buxoro balki butun O'rta Osiyo me'morchiligi va shaharsozligi quyidagi uch yo'sinda taraqqiy etdi.

1. Yevropa shaharsozligining kirib kelishi va O'rta Osiyo shaharlarining yangicha qiyofasi.
2. Mahalliy me'morchilik va rus arxitekturasining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan yangi muhandislik qurilishi yechimlari.
3. Ananaviy me'morchilik rivoji [1,137].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasida qurilgan me'moriy obidalar, ychimi ko'rkamligi jihatdan boshqa davr me'moriy inshootlardan ajralib turadi. Shunday obidalardan biri Sitorai Mohi Xossadir.

Sitorai Mohi Xossa – mang'itlar sulolasining saroyi. Saroyning dastlabki imoratlari amir Muzaffarxon (1860-1885) hukmronligi davrida qurilgan. Biroq bu yerda saroy va xushmanzara bog' barpo etish amir Abdulahadxon hukmronligi davrida (1885-1910) boshlangan. Dehqonlar va amir askarlari kuchi bilan botqoqlik quritilib, chorbog' bunyod etilgan. Saroy Yevropa va Isfaxon saroylari hamda Buxoro arxitekturasini negizida qurilgan. Qurilishda saroy me'mori Hoji Hafiz rahbarlik qilgan. Amir Olimxon hukmronligi davriga kelib (1910-1920) yangi saroy tiklangan va shu davrdan boshlab saroy kompleksi yangi va eski saroyga ajratiladigan bo'ldi.

ASOSIY QISM

Amir Muzaffarxon davrida Sitorai Mohi Xossada barpo qilingan inshootlar saqlanib qolmagan. Ko'p yillardan buyon tamirtalab bo'lgan qo'shsinchli katta mehmonxona 1986- yilda qulab tushib, uning surati saqlangan xolos.

Sirasini aytganda, mazkur hukmdor davrida saroyda ko'p qurilishlar amalga oshirilganiga umid bog'lash qiyin. Chunki, ko'p o'tmay rus bosqinchilari mamlakatga hujum qilib amir qo'shinlari Sirdaryoda bo'lgan janglarda mag'lubiyatga uchrab chekinishga majbur bo'lgan.

Muzaffarxon amirlikning Kattaqo'rg'ongacha bo'lgan keng hududini Rossiya ixtiyoriga topshirib va katta xiroj to'lab, sulh tuzishga majbur bo'lgan.

Buning oqibatida mamlakatda iqtisodiy inqiroz yuz berib, xalq o'rtasida ochlik va vabo boshlangan. Tabiiyki, bunday vaziyatda qarorgoh qurilishi to'xtatib qo'yilgan.

Amir Muzaffarxon vafotidan so'ng, taxtga uning o'g'li Abdulahadxon o'tirdi. Bu amir davrida iqtisodiy inqiroz tugatilib, saroy qurilishi yana davom ettirilgan. Bu ishga saroy me'mori Usta Hoji Hafiz rahbarlik qilgan. Asosiy binolar loyihalarini esa Ostonqul Hafiz o'g'li va Usta Nasrulloboy yaratib amalgam oshirishni boshqargan. Saroyini bunyod etishda yana Rostov-don, Peterburg, Toshkent va Lodz shaharlaridan taklif qilingan binokor mutaxassislar qatnashganlar.

Saroyini tomosha qilgan kishi uning bazi xonalari va zallari yevropacha uslubda planlashtirilganinig guvohi bo'ladi. Chunki, saroy qurilishidan oldin amir Abdulahadxon Peterburg va Moskva shaharlariga sayohat qilib, ko'pgina saroylar hamda arxitektura yodgorliklarini ko'rgan edi. Suning uchun saroyini qurish, bezash va jihozlashda Rossiyadan taklif qilingan mutaxassislar ham qatnashdilar. Rostov-dondan taklif qilingan V.N Kovalevskiy saroy binolariga sirli bo'yoqlar bilan jilo berdi. Lodz shaharlaridan taklif qilingan mutaxassis Krauza ko'pgina nodir ishlarni bajardi [3].

Abdullaxon davrida rus askarlarining kuch g'ayrati bilan Buxoroda to'rtburchak uzunchoq pishiq g'ishtlarni ishlab chiqarishga kirishilgan va bu g'ishtlar xalq o'rtasida "salloti" nomini olgan. Shundan keyin Buxoroda qurilgan ko'pgina binolar, shu jumladan Sitorai Mohi Xossa qarorgohida qad ko'targan inshootlar mana shunday shakldagi g'ishtlar bilan terilgan.

Abdullaxon hukmronligi davrida qurilib, davrimizgacha yetib kelgan saroy inshootlari o'ziga xos tuzilishga ega. Undagi to'g'ri to'rtburchak shaklidagi katta xona saroyning qoq markazi hisoblanadi. Katta xonaning ikki tomonida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan va bir xilda sayqal berilgan sakkiz burchakli bir juft kichik zal mavjud. Toshidan yo'nib yasalgan ramziy zinapoya bu ikki zal o'rtasida o'ziga xos supa hosil qilgan. Supaning ikki tomoni aylanma shaklda qurilib, pastki vayuqorisiga bezak berib qurilgan ustunlar kirish yo'lagiga alohida husn tarovat baxsh etadi.

Muzaffarxon va Abdullaxon barpo qilgan inshootlarda sharqona me'morchilik uslubining Buxoro va Isfaxon maktablari amali qisman ko'rinib turadi xolos. Bu bejiz emas. Ikkala hukmdor ham Buxoro me'morchiligi uchun yangilik bo'lgan g'arb uslubini qo'llashga harakat qilishgan.

Saroy qurilishidan muqaddam bir guruh ustalar g'arb qurilish uslubini o'rganish uchun Peterburg va Yalta shaharlariga borib kelishgan. Bu ham kamlik qilib rus muhandisi Sakovich qarorgoh qurilishiga taklif etilgan [4,21].

Afsuski, hozirgi vaqtga kelib, Muzaffarxon va Abdullaxon davrida qarorgohda barpo qilingan binolar buzilgan yoxud ularga jiddiy shikast yetgan, ko'pgina xonalarning asl tarxini keltirish qiyin. Chunki, ular keyinchalik qayta qurilgan.

Ayni mahalda yupqa ipak qog'ozga chizilgan Sitorai Mohi Xossa saroyining tarixi Buxoro davlat badiiy me'morchilik muzey qo'riqxonasining qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Undagi yozuvlar arab yozuvida bo'lib, fors tilida bitilgan. Tarxdagi ko'plab shiypolar, hovuzchalar, ko'shklar, pavilonlar va aylanasi monofilxona binolari bizgacha saqlanmagan. Afsuski tarxning muallifi noma'lum. U o'z ism-sharifini yozib qoldirmagan.

1937 yilda mashhur rus me'mori, akademik Vinogradov tiklagan chizmalar asosida ko'pgina binolar devorlari ikki va bir qatorli sinchlardan ko'tarilgani va shuning uchun devorlarda ko'plab past balaand tokchalar hamda ravoqchalar mavjudligini qayd etmoq mumkin.

Shunisi diqqatga sazovorki, ikkala eski saroyda ham derazalarning ko'pchiligi shimolga qaratilib, xonalarning yoz jazirasida rohatbaxsh salqinlikni olib kirgan. Bu esa me'morlar issiq iqlim sharoitida qasrni chinakkam jannatmakon go'shaga aylantirish maqsadida turli usullarni qo'llaganliklaridan dalolat beradi.

Buxoroning so'nggi amiri Sayyid Olimxon hukmronligi davrida Buxoroda qurilish ishlarining moliyalashtirilishi, boshqarilishi to'g'risida qisqacha izoh berishni lozim topdim.

O'sha vaqtlarda barcha qurilish ishlari maxsus devon nazoratida olib borilar edi. (Az baroi imorati podshoi komissiya) Bu komissiya-guruh tarkibiga rus muhandislari Morgules va Sakovichlar bilan birga Usta Hoji Abdurahim Hayotov, Usta Abdug'affor miroxo'r, qushbegi vakili Mirzo Isomiddin Qorovulbegi kirishgan edi. Qurilish topshiriqlari hukumat boshlig'i sifatida "Qo'shbegii Bolo" tomonidan berilib, mablag' bilan ta'minlash esa moliya vazifasini bajaradigan "Qo'shbegii poyin" amalga oshirar edi. Shahar ichkarisidagi qurilish ishlarini Husayn devonbegi boshqarar, shahar tashqarisidagi qurilish ishlariga esa, Latif devonbegi boshchilik qilar edi.

Shu jumladan, amir Sayyid Olimxon shahar tashqarisidagi yozgi saroyi Sitorai Mohi Xossa saroyi qurilishini ham Latif devonbegi moliyaviy nazoratchi sifatida boshqargan. Odatga ko'ra amir har bir yirik qurilishga bir taniqli ustani bosh me'mor qilib tayinlar edi. Tayinlangan bosh ustaning unvoni eng kamida miroxo'r bo'lishi kerak edi. Amiri Sayyid Olimxon davriga kelib, Buxoroda 50 nafar qorovulbegi unvoniga ega bo'lgan usta bo'lgan, Ustalar unvoninig eng yuqorisi to'qsabo hisoblanar edi.

Qarorgohning hozirgi shaklidagi asosiy binolari mang'itla sulolasining so'nggi vakili Mir Sayyid Olimxon hukmronligi (1911-1920) davrida barpo etilgan. Shuning uchun qarorgoh tuzilishi eski va yangi saroylarga bo'lingan.

Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylangani saroy qurilishi uslubida ham o'z aksini topgan.

Olimxon qurilishlarini loyihalashtirishda rus muhandislari Sakovich va Morgules xizmatidan foydalanganligi tufayli ko'pchilik binolarning tashqi ko'rinishi ovrupacha bo'lib, ichki bezaklar esa milliy uslubda bajarilgan.

Rus muhandislari Abdullaxon saroyini tashqarida qoldirib, uning sharq tomonida mahobatli bir me'moriy majmua loyihalashtirganlar va buxorolik ustalar ishtirokida uni amalga oshirganlar.

XIX asr oxirida Buxorodan Zapiskiy temir yo'lining o'tkazilishi va bu yerga yirik bank kapitalining kirib kelish munosabati bilan shaharlarda bank binolari, dorixonalar, ikkita kasalxona, pochta, telefon idorasi, vokzal, shahar markazida ikkita savdo timi qurildi. Mazkur binolar yevropacha me'morchilik uslubida ekaniga qaramay, tashqi tomonlarning g'ishtinligi tufayli shaharning tarixiy binolari bilan uyg'unlashadi. Shaharning bazi ko'chalariga tosh yotqiziladi.

Buxoroning eski Kogon qishlaog'i o'rnida barpo etilgan Kogon stansiyasi yaqinida 1887 yili kichikroq kasaba vujudga kelib, u sata- sekin kengaya bordi va Yangi Buxoro nomini oldi.

Bu shaharchada asosan bir qavatli xom g'ishtli uylar bo'lib, ularning old tomoni pishiq g'isht bilan qoplangan. Amirning Kogondagi saroyi eng yirik va ko'rkam bino bo'lib, tasirchan me'morchilik uslublarida ishlangan. "Зодчий" jurnalining 1896 yildagi sonlaridan birida saroy loyihasi ko'rsatilgan edi. Chizmalar ostidagi izohlardan shu narsa anglashildiki, loyiha "Me'mor Aleksey Benua tomonidan tuzilgan". Shunday qilib, ana shu ulkan inshootning muallifi Turkistonda mashhur bo'lgan va g'oyat istedodli me'mor A. L. Benuadir.

Saroyning to'g'ri burchakli tarxida bo'ylama o'q bo'ylab cho'zilgan yirik zallarning biridan ikkinchisiga o'tiladi. Tarx markazida eng katta zal joylashgan [2,110].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda madrasalar qurilishi ham davom etgan. Misol qilib, amir Muzaffar davrida 1873- yilda Xo'ja Naqib, 1873 yilda Fathulloh Qushbegi guzarida Sayyid Kamol madrasasi, 1873 yilda Naqib guzarida Naqib madrasasi, 1878- yilda Kakulai Xurd guzarida Qozi Latif, Ixtiyorxon guzarida Ixtiyorxon madrasalarini keltirib o'tishimoz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi me'morchiligi mahalliy me'morchilik va rus arxitekturasining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan yangi muhandislik qurilishi yechimlari, an'anaviy me'morchilik rivoji kabilar tarqqiy etdi desak xato bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Ахмедов М.К. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихидан.-Т.: “Ўзбекистон”, 1995. –Б. 247.
2. Бухоро шарқ дурдонаси -Т.: “Шарқ” 1997. – Б. 384.
3. Сайдалиев С. “Ситораи Моҳи Ҳосса”. Қишлоқ ҳақиқати// 1977. 8-dekabr.
4. Jumayev Qoryog'di. Sitorai Mohi Xossa. -Buxoro. 2010. –Б. 154.
5. Ismailovich, T. A. (2021). Migration of Turkmen Tribes to Zarafshan Oasis: History and Analysis. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 2(3), 47-52.
6. To'rayev, A. (2023). O'ZBEKLARNING CHORJO'YDAGI HAYOT YO'LLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).
7. To'rayev, A. (2023). БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 35(35).
8. To'rayev, A. (2023). English Buxorodagi turkmanlarning ananaviy turar joylari va undagi zamonaviy ozgarishlar. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 35(35).
9. To'rayev A. BUXORO TURKMANLARI BILAN BOG 'LIQ JOY NOMLARI TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 14. – №. 14.
10. To'Rayev A. I., Hayotov F. U. Buxoro vohasi aholisining islom dinini qabul qilishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 499-504.
11. To'Rayev A. I. BUXORO VOHASIDA YASHAB KELGAN TURKMANLAR HAYOTIDA CHORVACHILIKNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1165-1170.
12. To'rayev A. А ЎҒУЗ ҚАБИЛА ВА УРУҒЛАРИНИНГ ТУРКМАН ХАЛҚИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ ЎРНИ: Horijiymaqola //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 6. – №. 2.
13. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
14. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
15. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>

16. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
17. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
18. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
19. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
20. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
21. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
22. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
23. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
24. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
25. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
26. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV–O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
27. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
28. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
29. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.

30. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev's Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
31. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
32. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
33. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
34. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
35. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
36. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIC CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
37. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401
38. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.